MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI BADIIY-ESTETIK TARBIYALASHDA SENSOR TARBIYANING AHAMIYATI.

Umarova Gulshod Abdujabbarovna Guliston davlat pedagogika institutining katta o‘qituvchisi.
e-mail:g.umarova.gdu@gmail.com
Narkuziyeva Nodira Zoirqul qizi Guliston davlat pedagogika instituti talabasi.
e-mail:nodira290394@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘rni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki jamiyatimizga ilm-ma’rifatli, aql-u zakovatli, kreativ va odob-axloqli farzandlarni kamol toptirish, tarbiyalash eng avvalo ta’lim sohasida maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlanadi. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohatlarni O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’biri bilan aytganda “Mamlakatimizning istiqlol yilidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda”.

Bizning oldimizga qo‘yilgan mazkur ezgu maqsadlar zamirida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar zimmasiga bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabga, o‘qishga va yozuvga tayyor darajada shakllantirib berishni talab etadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari bolalarni har tomonlama shakllantirish, ya’ni ularni badiiy-estetik tarbiyalash, bilish qobiliyatini muntazam rejali ravishda rivojlantirib borish, bilimlar tizimi bilan qurollantirishda albatta sensor tarbiyaga yuzlanadilar.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, tarbiya, badiiy-estetik tarbiya, sezgi, idrok, sensor tarbiya, sensor madaniyat, sensor qobiliyat, sensor etalonlar.

ЗНАЧЕНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПИТАНИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ.

Абстрактный. Важна также роль организаций дошкольного образования в повышении качества и эффективности системы образования в нашей стране. Потому что развитие и воспитание образованных, умных, творческих и нравственных детей в нашем обществе начинается прежде всего с дошкольных

образовательных организаций в сфере образования. По словам Ислама Абдугьяневича Каримова, первого президента Республики Узбекистан, реформы, которые проводятся сегодня в сфере образования, таковы: Большое значение придается цели оздоровления, укрепления ее национальной почвы, приведения ее в порядок. до уровня мировых стандартов и навыков на основе гармонизации с требованиями времени. В рамках этих поставленных перед нами благородных целей воспитатели, работающие в организациях дошкольного образования, обязаны формировать здоровую и зрелую личность ребенка, готовую к школе, учебе и письму. Воспитатели организаций дошкольного образования определенно ориентированы на сенсорное воспитание во всестороннем формировании детей, то есть их художественно-эстетическое воспитание, систематическое плановое развитие познавательных способностей, вооружение системой знаний.

Ключевые слова: Образование, воспитание, художественно-эстетическое воспитание, интуиция, восприятие, сенсорное воспитание, сенсорная культура, сенсорные навыки, сенсорные стандарты.

THE IMPORTANCE OF SENSORY EDUCATION IN THE ARTISTIC AND AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.

Abstract. The role of preschool education organizations in improving the quality and effectiveness of the education system in our country is also important. Because the development and upbringing of educated, intelligent, creative and moral children in our society begins first of all with preschool education organizations in the field of education. In the words of Islam Abdugyanevich Karimov, the first president of the Republic of Uzbekistan, the reforms that are being carried out in the field of education today are: Great importance has been attached to the goal of improvement, strengthening of its national soil, bringing it to the level of world standards and skills on the basis of harmonization with the requirements of the time.

Under these noble goals set before us, educators working in preschool education organizations are required to form a healthy and mature personality of the child, ready for school, study and writing. Educators of pre-school education organizations are definitely focused on sensory education in the comprehensive formation of children, that is, their artistic and aesthetic education, regularly planned development of cognitive abilities, and arming them with a system of knowledge.

Keywords: Education, education, artistic and aesthetic education, intuition, perception, sensory education, sensory culture, sensory skills, sensory standards.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-estetik tarbiyani rivojlanishi maktabgacha ta’limning o‘quvjarayoni mazmunida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi, bu yerda birinchi o‘rinda avlodlarning ijodiy tajribasini maktabgacha yoshdagi bolalar madaniyati bilan tanishtirish, dunyoga hissiy va qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirish, badiiy va ijodiy faoliyat jarayonida shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun sharoit yaratish muammolari keltiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv rivojlanish murakkab fenomen sifatida qaraladi, bu bolaning atrofidagi dunyoga yo‘naltirilishining turli shakllarini ifodalovchi kognitiv jarayonlarning (fikrlash, xotira, e’tibor, tasavvur, idrok) rivojlanishini o‘z ichiga oladi o‘zi va faoliyatini tartibga soladi. V. G. Kamenskayaning so‘zlariga ko‘ra, 5-7 yoshda maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv funksiyalarda o‘zgarishlarni boshdan kechiradilar - boy ijtimoiy munosabatlar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabat tufayli bola ijtimoiy dunyoda o‘zini o‘zi anglash tajribasini jadal ravishda to‘playdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta’lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishida Sharq va G‘arb pedagoglarining muhim o‘rni bor. Markaziy Osiyoning mashhur allomalaridan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o‘zlarining asarlarida ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor qaratganlar.

Faylasuf olim Farobiy o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida tarbiya orqali insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab beradi.

Abdulla Avloniy esa tarbiya haqida g‘oyat ibratli fikrlarni bildiradi. «Pedagogika Abdulla Avloniyning yozishicha, – bola tarbiyasining fani, demakdir». «Dars ila tarbiya ikkisi jon ila tan kabidir», «Dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchidir». Bu yerda pedagogika faniga qisqa va lo‘nda ta’rif berib, ta’lim bilan tarbiyani esa jon bilan tanga o‘xshatib, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab bergan. Avloniyning ta’kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug‘ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi [3].

Bu sohada Sharq va G‘arb xalqlari yaratgan og‘zaki ijodiyot, buyuk mutafakkir, pedagog va olimlarning ta’lim-tarbiyaga doir ilg‘or fikrlarini o‘rganib, tahlil qilib, barkamol insonni tarbiyalash jarayonini o‘rganish biz uchun juda qimmatlidir:

ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni bolalar bog‘chalarining amaliy hayoti bilan bog‘lab, bo‘lajak tarbiyachi - o‘qituvchilarga o‘rgatish hamda xalq ta’limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o‘rganib, bo‘lajak tarbiyachilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish;

maktabgacha tarbiya muassasalarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish.

Bunday vazifalarda tadqiq etish:

birinchidan, bolalar sog‘lig‘ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jismoniy rivojlanishini ta’minlaydi;

ikkinchidan, ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantiradi;

uchinchidan, Vatanga, tabiatga, jonajon o‘lkaga muhabbat, kattalarga hurmatni, o‘rtoqlik va jamoatchilik, xayrixohlik, xulq madaniyati, mustaqillik, uyushqoqlik va intizom, mehnatsevarlik kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi;

to‘rtinchidan, estetik tarbiyani amalga oshiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim berish tizimi pedagogikada ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) tomonidan yaratilgan. Ya. A. Komenskiy 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Shu bilan Ya. A. Komenskiy maktabgacha tarbiya

pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos soldi [4].

Shveysar pedagogi I. G. Pestalotssi (1746-1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni rivojlantirish masalasiga katta e'tibor beradi. G. Pestalotssi tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning asosiy mazmuni maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishda va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta'lim berishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi [5].

Hozirgi zamon maktabgacha ta'lim nazariyasini yaratishda A. P. Usovaning xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning asarlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqarilgan davlat talablari, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish maqsadida Maktabgacha ta'lim va tarbiya Davlat standartlari, "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat o'quv dasturi ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu davlat xujjatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning zamonaviy shakl, vosita va metodlari o'z ifodasini topgan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limning keyingi bosqichi – maktabga tayyorlashning asosiy soha kompetentsiyalari belgilab berilgan.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy bilish juda katta ahamiyatga ega. His qilish esa sezgi va idrokka asoslanadi. Tasavvurlarning asosini esa bevosita sezish orqali idrok etish tashkil etadi. Bu bilan bola zavqlanadi, boladagi badiiy-estetik rivojlanish yuzaga keladi. Bu kabi tasavvurlarning aniqligi esa sensor jarayonlarning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Sensor tarbiya deganda idrok va sezgining bir maqsad tomon qaratilgan holda rivojlantirish tushuniladi. Sensor so'zi lotincha "sensus"-"tuyg'u", sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati" ma'nolarini bildiradi. Bu tushuncha orqali bolalarda badiiy ijodkorlik, zavq, nafosat xususiyatlari namoyon bo'ladi. Sezgi va idrok qanchalar boy bo'lishiga qarab, insonning atrof-muhit, borliq haqidagi ma'lumotlari keng va ko'p qirrali bo'ladi. Bolalarning sensor madaniyati undagi sezgi va idrokning rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida bola faoliyatining muvaffaqiyati uchun muhim shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi. Sezgi-bu atrof olamdagi moddiy dunyoni, narsa va hodisalarning inson ongida aks etishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-estetik tarbiyani rivojlantirishda sensor tarbiyaning ahamiyati bolalarning sensor qobiliyatlarini o'stirishdan iborat. Bolalarga ranglarni, tuslarni, shakllarni, tovushlar balandligi va tembrini farqlay bilish, shakl va ranglar birikmasini, tasviriy san'at va musiqa asarlarini yanada yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Musiqa tinglash, suratlar va haykallar, qushlar, hayvonlar, turli rangdagi gular va hakozolarni ko'rib zavqlanadilar. Bolalar faqatgina zavqlanib qolmasdan ularni ushlab ko'rishlari, hajm va shakllarini farqlay olishlari, ularni qachon va nima maqsadlarda ishlatilishini chuqurroq idrok etishlari hamda bu jarayonda o'zlarining xilma-xil sezgilari va idroklarini takomillashtirishlari talab etiladi.

Sensor tarbiya quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni talab etadi.

1. Bolalarda perseptiv harakatlarni shakllantirish.
2. Buyumlarning xususiyati, sifati, munosabati to'g'risidagi umumlashgan

tasavvurlar, sensor etalonlar tizimini shakllantirish.

Perseptiv qobiliyat –bu bolalarning ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqaruvchi qobiliyatdir.

Bolalar qancha tabiat bilan hamnafas bo‘lsalar ularda sensor etalonlar haqidagi tasavvurlar hosil bo‘ladi. Asosiy ranglar, shar, kub, aylana, kvadrat, romb va shu kabi geometrik shakllar, notalarda ifodalangan musiqali tovushlarning turli balandligini etalonlar jumlasidandir. Bolalarda sensor etalonlarni o‘zlashtirish uzoq davom etadigan va murakkab jarayon hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davri hisoblanadi va bu davrda sensor tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Mariya Montessori yaratgan Maktabgacha ta’lim texnologiyasi maktab yoshdagi bolalarni tarbiyalash borasida barcha tizimlar orasida ajralib turadi. Montessori metodikasi bo’yicha maktabgacha yoshdagi bolalarni sensor tarbiyalashda quyidagi maqsadlar nazarda tutilishi kerak.

1. Barcha tashqi hissiyotlarni shakllantirish.

2. Tashqi hissiyotlarni tarbiyalash orqali hali to‘liq shakllanmagan barcha ruhiy jarayonlarni rivojlantirish kerak. Chunki diqqat, intelekt va iroda to‘liq rivojlanmagan bo‘ladi.

3. Odatiy bir yoqlama madaniy tasavvurdan xalos bo‘lish.

4. Nutq apparatlari orqali tilni rivojlantirish, so‘z boyliklarini oshirish.

5. Bolalarning ruhiy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq tarzda, o‘z-o‘ziga xizmat qilishda ehtiyoj va talablarni rivojlantirish.

Mariya Montessori yuqorida ko‘rsatilgan pedagogik maqsadlarga erishish uchun bolalarni yaxshi sharoitda tarbiyalashni tavsiya etadi.

XX asr boshlarida Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan sensor tarbiya sistemasi bolalarning shakl va hajm, rang va tuslarni yuksak darajada farqlay olishga erishishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bunda bolalar qo‘ldagi mayda muskullarni rivojlantirishga, predmetlarning hajmlari va shakllaridagi arzimagan farqlarni ushlab ko‘rib aniqlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, rang tuslardagi nozik farqlarni payqab olishga alohida e’tibor bergan. Bolalarda bu kabi qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ular bilan ko‘proq tabiat qo‘ynida mashg‘ulotlar olib borish lozim. Tabiatda ro‘y beradigan hodisalarni, quyoshning nurlarini sochishi, shabbodaning esishi, yomg‘irdan so‘ng osmonda kamalakning paydo bo‘lishini kuzatishlari hamda tevarak-atrof bilan tanishishlari kerak.

Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” kitobida shunday yozadi; “Televizion dasturlar muntazamligi bolada vaqt tushunchasini shakllantiradi. Odatda go‘daklar faqat bugun bilan yashaydi, uning uchun “o‘tmish” va “kelajak” tushunchalari mavjud emas. Taxminan ikki yarim yoshida, aniqrog‘i gapirishni boshlaganida bola “avval”, “keyin”, “kecha” va “ertaga” nima ekanligini tushuna boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda bola nutqni tushuna boshlaganida va gapirishni o‘rganganida unda vaqt tushunchasi paydo bo‘ladi” deb ta’kidlab o‘tgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bolalarni ongini, tasavvurlarini va sezgi, idroklarini rivojlantirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari talim-tarbiya va aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasining asosi hisoblangan sensor tarbiyaga asoslangan holda ish faoliyatlarini olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Yurt poydevori va ertasi, kelajagi bo‘lgan farzandlarni har tomonlama yetuk va

mukammal, komil va barkamol qilib tarbiyalash maktabgacha ta’lim tarbiyachilari zimmasida ekan, bu kabi sharafli burchni mas’uliyat bilan ado etmoqlikka qat’iy yondashish va bajarish shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: “Sharq” 1997. – B.14-15.
2. Qodirova F., Toshpo‘latova SH., Kayumova N., A’zamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: “Tafakkur” Nashriyoti, 2019. – B.177.
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2018. . – B. 107.
4. Yadeshko V I., Soxin F. A. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi taxriri ostida. – Toshkent “O‘qituvchi”, 1981. – B. 197.
5. Rang va shakllarni o‘rganamiz. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun multimedia dasturi. . – Toshkent: “O‘zbegim dasturlari”. 2008. – B. 3.
6. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” (4-nashr). – Toshkent “Akademnashr” 2021. – B. 163.
7. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018
8. Jalolova G. Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash. Metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2004.